

**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrası
PhD,dotsenti Abdumannotov Elbek
taqrizi ostida**

Alimova Laylo Khamza qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
E-mail: layloalimova27@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-8441-7764

KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA O‘YIN VA IJODIY FAOLIYATNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqola kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘yin va ijodiy faoliyatning ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ta‘lim jarayonida o‘yin va ijodiy faoliyatning qo‘llanilishi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Maqolada o‘yinlarning talabalarning muloqotga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni hamda ijodiy faoliyatning tanqidiy fikrlash va mustaqil fikr bildirish qobiliyatlarini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shu bilan birga, o‘yin va ijodiy faoliyatning talabalarda til boyligini oshirish, faollik va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta‘kidlanadi. Xulosa qismida ushbu usullarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi beqiyos ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin , ijodiy faoliyat, munozara , rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, guruhiy lohiyalar.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimi globallashuv jarayonining talablari asosida rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda talabalarning nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularning muloqot ko‘nikmalarini, ya'ni kommunikativ kompetensiyasini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki har bir mutaxassisning o‘z kasbiy hamda shaxsiy faoliyati davomida muloqotchanlik qobiliyati yetarli darajada shakllangan bo‘lishi kerak. Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish ko‘nikmasi har doim ko‘plab izlanuvchi olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o‘zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ xatti-harakatlarini nazariy o‘rganishga e‘tibor qaratilgan. Bugungi kunda kommunikatsiya tushunchasiga nisbatan berilgan qator ta‘riflar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir.[1]

Kommunikatsiya – bu o‘zaro insonlar o‘rtasida ma‘lumot uzatish hisoblanadi, shuningdek, kommunikatsiya nafaqat ma'lumot yetkazish, balki uni yaratish funksiyasini ham bajaradi degan fikrlar ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Demak, kommunikatsiyani o‘zaro fikr almashishning o‘ziga xos jarayoni sifatida qabul qilish mumkin, uning natijasida o‘zaro yordam ko‘rsatish hamda turli murakkablik darajalariga ega bo‘lgan harakatlarning muvofiqligi ta'minlanadi. Shu bilan birgalikda kommunikativ kompetensiya tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak , kommunikativ kompetensiya — bu samarali muloqot qila olish qobiliyatidir va u xabarlarini shakllantirish hamda tushunish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.[6]

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Kommunikativ kompetensiya talabalar uchun bilimlarni samarali tarzda tushunish, ifoda etish va baham ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Ular o‘qituvchi va talabalar bilan o‘zaro fikr almashish, guruhli muhokamalarda qatnashish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi.

Tadqiqotchi olim E.I.Litnevskaya kommunikativ kompetensiyaga nisbatan quyidagi ta'rifini ilgari suradi: "Nutq faoliyatining barcha turlarini og'zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma'lum bir yoshdagi muloqotning hayotiy sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikmalari va malakalarini o'zlashtirishdir".[4-4]

Boshqa bir olim N.I.Gez kommunikativ kompetentlikni "turli ijtimoiy jihatdan belgilangan sharoitlarda tilni to'g'ri qo'llash qobiliyati" deb tushunadi. Demak, kommunikativ kompetentlik nutqni muloqotning maqsadi va holati bilan taqqoslash qobiliyatini, shuningdek, kommunikativ xatti-harakatlarning madaniy va ijtimoiy me'yorlarini hisobga olgan holda muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda o'quv jarayonida o'yin va ijodiy faoliyatdan foydalanish kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu ikkala faoliyat turi talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki o'yin shaxsni tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. O'yinlar va ijodiy faoliyat o'quvchilarga o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va boshqalar bilan muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi. Bu jarayonlar, ayniqsa, o'z fikrini erkin ifoda etish va boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish uchun zarur. Shuningdek, o'yin va ijodiy faoliyatlar orqali o'quvchilar o'zlarining shaxsiy fikrlarini va his-tuyg'ularini ifoda etishga, shuningdek, boshqalarning fikrlarini tinglashga o'rganadilar. Bu o'z navbatida, kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Ijodiy faoliyat va o'yinlar o'quvchilarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularning muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Bundan tashqari o'quv jarayonida o'yin va ijodiy faoliyatdan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud, shuningdek, bular ta'lim sifatini oshirishga va talabalarni kasbiy hamda shaxsiy faoliyatiga bir qancha ijobiy ta'sir etadi. Ijodiy faoliyat kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi, chunki u talabalarga o'z fikrlarini aniq va erkin ifoda etish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, shuningdek, turli vaziyatlarda muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan nutq, tinglash, tushunish va fikr almashish ko'nikmalarini ijodiy faoliyat orqali rivojlantirish samarali usullardan biridir.

Ijodiy faoliyatning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi asosiy afzalliklari:

- ✓ **Til boyligini oshirish.** Ijodiy faoliyat jarayonida, masalan, hikoya tuzish yoki rolli o'yinlar orqali o'quvchilar yangi so'z va iboralarni o'rganadi. Ular o'z g'oyalarini so'z bilan ifodalashga o'rganadi, bu esa lug'at boyligini oshirishga yordam beradi.
- ✓ **Tushuntirish va izohlash ko'nikmasini rivojlantirish.** Ijodiy faoliyat davomida o'z ishini yoki yaratilgan narsani tushuntirish talab etiladi. Masalan, rasm chizib bo'lgach, o'quvchi o'z asarini tasvirlab beradi, bu esa fikrni aniq ifodalashni o'rgatadi.
- ✓ **Tinglash va fikr almashish.** Jamoaviy ijodiy mashg'ulotlar davomida o'quvchilar bir-birlarini tinglashga va fikr almashishga o'rganadilar. Bu esa empatiya va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.
- ✓ **Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish** — jamoaviy o'yinlar va loyihalar o'quvchilarni boshqalar bilan samarali hamkorlik qilishga, muammolarni birgalikda hal qilishga o'rgatadi.

Masalan, rolli o'yinlar orqali o'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday muloqot qilish kerakligini o'rganadilar. Bu ularga muloqotda ishonchli bo'lish, o'z nuqtayi nazarlarini himoya qilish va boshqalarning fikrini tinglash ko'nikmasini beradi. Ijodiy faoliyat o'quvchilarda

tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga, o'z fikrlarini aniq va ravon bayon qilishga yordam beradi. Ijodkorlik talabaniq faqat o'z fikrini bildirishigina emas, balki yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini ham shakllantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Izlanishlar natijasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda o'yin va ijodiy faoliyat muhim komponentlardan biri ekanligini tasdiqlovchi bir qancha misollar o'rganib chiqildi va o'quv jarayonida ijodiy faoliyatdan foydalanish usullari keltirilib o'tildi.

O'quv jarayonida ijodiy faoliyatdan foydalanish uchun amaliy tavsiyalar:

T/r	Ijodiy faoliyat usullari	Afzalliklari
1.	<i>Munozara va bahs-munozaralar</i>	o'quvchilar mavzuga oid o'z fikrlarini bildirish orqali muloqotda faol ishtirok etadilar.
2.	<i>Insho va hikoya yozish</i>	bu usul o'quvchilarning o'z fikrlarini yozma shaklda ifoda etish ko'nikmasini rivojlantiradi.
3.	<i>Ijodiy topshiriqlar bajarish</i>	jamoaviy loyiha yoki sahna ko'rinishlarini tayyorlash orqali o'quvchilar bir-biri bilan samarali hamkorlik qilishni o'rganadilar
4.	<i>Rolli o'yinlar</i>	O'qituvchilar darslarda turli vaziyatlarni aks ettiruvchi rolli o'yinlarni tashkil etishlari mumkin. Bu o'quvchilarning haqiqiy hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi
5.	<i>Guruhiy loyihalar tashkil etish</i>	o'quvchilarga guruh bo'lib loyiha tayyorlash topshirig'ini berish ularni birgalikda ishlash va fikr almashishga undaydi.

MUHOKAMA

O'yinlar va ijodiy faoliyat faqatgina individual rivojlanish emas, balki guruhda muloqot qilish, fikr almashish va turli fikrlarni muhokama qilish imkoniyatlarini yaratadi. Muhokama jarayoni o'zaro hurmat, tinglash va fikrlarni asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, bu o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshiradi. O'yin va ijodiy faoliyat davomida o'quvchilar o'z fikrlarini boshqalarga yetkazishda yanada ishonchliroq va aniqroq bo'lishadi. Ijodiy faoliyat, masalan, san'at yoki yozma faoliyat, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun kerakli vosita hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat o'z fikrini bayon qiladi, balki turli vositalar orqali boshqalarga o'zini ifodalaydi. Ijodiy faoliyatda nutq, tasavvur va mantiqiy fikrlashni birlashtirish zarurati bor, shuningdek, bunday faoliyatning til va so'z boyligini oshirishga qaratilgan. Rolli o'yinlar yoki guruhli o'yinlar davomida ishtirokchilar o'z fikrlarini aniq va samarali ifodalash, bir-birlarini tinglash va tushunish, turli nuqtai nazarlarga ochiq bo'lish kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Bu esa ularning kommunikativ qobiliyatlarini oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda , talabalar uchun kommunikativ kompetensiya nafaqat ta’lim jarayonida, balki kelajakdagi professional va shaxsiy hayotlarida ham muhim omil hisoblanadi. Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘yin va ijodiy faoliyatning o‘rni beqiyosdir. O‘yin o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish bilan birga, o‘quvchilarning muloqotga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Ijodiy faoliyat esa talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va o‘z fikrlarini ravon ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shunday qilib, o‘yin va ijodiy faoliyat kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, o‘quvchilarga o‘zaro muloqot qilish, ijodkorlik va muammolarni hal qilishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatova Dilnoza, & Alimova Laylo. (2024). “Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish” International Innovation and Researches, 1(2), 121–124.
2. Byram, M. (2000). Assessing Intercultural Communicative Competence: Theory and Practice. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
4. Littlewood, W. (2004). The Task-based Approach: Some Questions and Issues. ELT Journal, 58(4), 319-327.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Main_Page